

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



"Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

**Международная научно-практическая конференция на тему
«Приоритетные направления повышения благосостояния населения
посредством устойчивого экономического роста в регионе»**

МАТЕРИАЛЫ

International scientific and practical conference on the topic "Priority directions for improving the well-being of the population through sustainable economic growth in the region"

MATERIALS

II Jild

16-17 Aprel, 2024-yil Urganch, O'zbekiston

UO'K: 332.1:330.59(575.1)

KBK: 65.04(50')

M 52

“Mintaqada barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari II jild [Matn] / Urganch Davlat Universiteti.-Xorazm: Khwarezm travel, 2024.- 380 b.

Xalqaro konferensiya materiallari tezislar to‘plamidan iborat bo‘lib, unda mintaqada barqaror iqtisodiy o’sishida sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish istiqbollari, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish yo‘nalishlari, mintaqani barqaror rivojlanishida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari, mintaqaning barqaror iqtisodiy o’sishida agrar sektorning o‘rnini va roli, mintaqaning barqaror iqtisodiy o’sishida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, mintaqada iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ekonometrik modellashtirish masalalariga oid materiallar kiritilgan.

To‘plam iqtisodiyot sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan, ilmiy taddiqotlar olib borayotgan yosh olimlar, tayanch doktorantlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchi va magistrler uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

**i.f.d., prof. Abdullayev I.S.
i.f.d., dots. Islamutdinov V.F.**

Tahrir hay’ati:

**i.f.d., prof. Ruzmetov B.R.,
i.f.d., dots. Matyakubov U.R.,
i.f.d., dots. Xudayberganov D.T.,
dots. Axmetshin E.M.,
dots. Gurbanov P.A.,
dots. Ollanazarov B.D.,
dots. Bekjanov D.Y.,
dots. Abdullayev F.O.,
dots. Fayzullayev N.B.,
dots. Rahimov T.J.,
dots. Aminova M.S.,
PhD Matyaqubova D.O.**

Taqrizchilar:

**i.f.d., prof. Doschanov T.D.,
i.f.d., prof. Anopchenko T.Y.**

ISBN: 978-9910-727-02-3

©“Khwarezm travel” MChJ nashriyoti, 2024 y.

© “Mintaqada barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari II jild.

O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY PARKLARNING AHAMIYATI

**J.T.Umurov –Buxoro Davlat Universiteti Turizm va mehmonxona
xo‘jaligi kafedrasи o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ekoturizmni rivojlanirishda xorij mamlakatlari tajribasidan foydalanish, qo‘riqxona va milliy parklarda ekoturizmga ruxsat berishning foydali tomonlari va istiqbollari haqida fikrlar bayon qilingan. Yurtimizdagи ekoturistik obyektlarning imkoniyatlari va foydalilik xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari O‘zbekistondagi milliy parklar faoliyatining tahlili keltirilgan bo‘lib, milliy parklarning ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm, milliy park, qo‘riqxona, sayg‘oq, morxo‘r, jayron.

Abstract: This article describes the advantages and prospects of using the experience of foreign countries in the development of ecotourism in our country, allowing ecotourism in nature reserves and national parks. Opportunities and useful features of ecotourism facilities in our country are revealed. In addition, the analysis of the activity of national parks in Uzbekistan is presented, and the importance of national parks is described.

Key words: Ecotourism, national park, reserve, saiga, morkhor, gazelle.

Аннотация: В данной статье описаны преимущества и перспективы использования опыта зарубежных стран в развитии экотуризма в нашей стране, позволяющего осуществлять экотуризм в природных заповедниках и национальных парках. Раскрыты возможности и полезные особенности объектов экотуризма в нашей стране. Кроме того, представлен анализ деятельности национальных парков Узбекистана и описано значение национальных парков.

Ключевые слова: Экотуризм, национальный парк, заповедник, сайгак, морхор, джейран.

O‘zbekiston ulkan turistik salohiyatga va imkoniyatlarga ega. Respublikamiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda jozibador va maftunkor turistik

markazlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tarixning turli davrlariga mos noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari butun dunyo turistlarini o'ziga maftun qilib, ohangraboday chorlab turadi. Qadimi shaharlardagi arxitektura yodgorliklari bilan zamonaviy milliy arxitektura yodgorliklari mujassamlashib, go'zal va o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi. Yevropa xalqlari o'zining davlatchilik tarixida shaharlarning qurilishda pishgan g'ishdan foydalangani tufayli dunyo bo'yicha shaharsozlikning paydo bo'lishi shaharlar yoshini pishgan g'isht bilan hisoblanadi. Bizning mintaqamizda esa xom g'isht va loydan qilingan qadimiy inshootlarimiz shaharlar yoshini aniqlashda asosiy o'rinn tutadi. Eng katta muammo shundaki, xom g'ishtdan qilingan tarixiy binolarimiz tabiiy va texnogen hodisalar tufayli yemirilishga moyil bo'lishi va tarixiy inshootlarning umri qisqa bo'lishidadir. Masalan, shamol, yomg'ir, suv toshqinlari, quyosh nuri ta'siri va bir qancha tabiat hodisalari ta'sirida loydan qilingan bino va inshootlar yillar davomida yemirilib, tarixiy qiyofasini yo'qotib kelgan. Bunday loydan qilingan tarixiy binolarimizning qadri shuning uchun ham turistlar orasida baland bo'ladi.

Yurtimizda nafaqat madaniy, tarixiy va ziyorat turizmi, balki turizmning boshqa turlarini ham rivojlantirish uchun yetarlicha salohiyatga ega. Shulardan biri ekologik turizmdir. Yurtimiz tabiatida noyob o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalganligi, fasllarning keskin bir-biridan farq qilishi, iqlimi resurslarning mavjudligi, turli xil shifobaxsh buloqlarning va rekreatsion resurslarning yurtimiz bo'ylab keng tarqalganligi malakatimizda ekoturizmni rivojlantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Butunjahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha ekologik turizm, turizm turlari orasida eng tez va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tur hisoblanadi. Ekologik turizmning yillik o'sish sur'ati 4-5% dan yuqori. O'zbekistonda ham turizmning bu turi eng tez rivojlanayotgan turlarga kiradi, o'rtacha yilik o'sish ko'rsatkichi 10-12% ni tashkil qiladi.

Ekoturizm tabiiy hududlarni saqlab qolish, mahalliy hamjamiyatning farovonligini ta'minlash va ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishni maqsad qilgan barqaror sayohatning bir turidir. Turizmning bu turi ekologik dunyoqarashga ega

bo‘lgan ilmiy xodimlar va tabiatni asrashga harakat qilayotgan ekosayyoohlar orasida juda mashhur hisoblanib, ular tomonidan doim turli ekologik aktsiyalar bilan keng ommaga targ‘ib qilib boriladi [1]. Sayyoraviy muammolarning paydo bo‘lishi ham ekologik turizmni rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Ekoturizm bio-madaniy xilma-xillikni saqlash bo‘yicha iqtisodiy rag‘batlantirish orqali mahalliy va xususiy tarmoqlar uchun iqtisodiy jihatdan yuqori foyda keltiradi.

Sayohat va sayyohlik sanoatining o‘sishi hisobiga, ayniqsa, an’anaviy ommaviy turizmga nisbatan ekoturizmning ommaviyligi oshmoqda[2]. Ekologik turizmdan tushadigan daromad aksariyat mamlakatlarda turizm ulushining asosiy qismini egallaydi. Masalan, Kanada davlatida turizm sohasidan keladigan daromadning 30-40 % qismi ekoturizm hissasiga to‘g‘ri keladi. 20-asrning boshlarida yer sharida odamlarning keskin ko‘payishi va ommaviy sanoatning rivojlanishi va insonning tabiat ustidan hukmronligi ekologik muammolarni keltirib chiqardi.

Havoning ifloslanishi, dengiz va okean suvlarining ifloslanishi, sanoat gazlarining atmosferaga chiqarilishi, unumdor yerlarning foydalanishdan chiqorilishi va sho‘rlanishi dunyo hamjamiyati oldidagi ekologik inqirozning yomonlashuviga olib keldi, tabiiyki bunday holatda atrof muhitga zarar yetkazmasdan harakat qilish usuli bu ekoturizmdir. Shuning uchun ham birinchi marta atrof-muhit muhofazasi borasida rivojlangan davlatlar o‘zining turli modellarini va dasturlarini ishlab chiqishdi. Bunday dasturlardan biri bu Milliy parklarni tashkil qilish orqali yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlash, muhofaza qilish va uni ko‘paytirish orqali insonning tabiatga aralashuvini keskin kamaytirishdir. Birinchi marta Amerikada Kanada va AQSh davlatlari tashabbusi bilan 1872-yilda “Yellowstoun” milliy parki tashkil qilindi. Ushbu parkning tashkil qilinishiga sabab ushbu hududdagi noyob hisoblangan geotermal buloqlarni saqlash insonlarning ushbu hududga antropogen bosimini kamaytirish edi. Shundan so‘ng milliy parklarni tashkil qilish dunyo davlatlari orasida keng yoyildi. Keyinchalik, 1933-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan “Afrika flora va

faunasini muhofaza qilish Konvensiyasi”ning milliy parklarni tashkil qilish bo‘yicha qarori qabul qilinib, Afrikaning turli davlatlari milliy parklar tashkil qilina boshlandi.

Hozirgi kunda afrikaning ko‘plab davlatlarida dunyodagi eng katta hayvonlar yashaydigan va qo‘riqlanadigan turli nomdagি milliy parklar bor. Shulardan ba’zilarini sanab o‘tsak, Kongo demokratik respublikasida joylashgan Solonga milliy parki, Upemba milliy parki, Maiko va Virunga milliy parklari dunyodagi eng yirik quruqlikda yashovchi hayvonlar tarqalgan. Bu hayvonlarni ko‘rish uchun turli sayyohlik dasturlari ishlab chiqilgan va Yevropaliklar ommaviy ravishda ushbu jonzotlarni ko‘rish maqsadida turistik maqsadlarda Afrikaga tashrif buyurishmoqda. Kafue milliy parkida dunyodagi eng ko‘p begemot va oq karkidonlar yashaydi va muhofaza qilinadi. Keniya davlatining markaziy qismidagi Abardare va Kruger milliy parkida dunyodagi eng yirik va xafli bo‘lgan hayvonlar yashaydi va bu hayvonlarni ko‘rish maqsadida ushbu milliy parklarga millionlab ekosayyoohlар tashrish buyurishadi. Ushbu milliy parkda “Katta Beshlik” deb ataluvchi ov qilishda eng xavfli bo‘lgan hayvonlar tarqalgan. Ekstremal sayohatlarni xush ko‘rvuchi sayyohlar ushbu qo‘riqxonalarga yovvoyi hayvonlarni tomosha qilish maqsadida katta pul to‘lab ushbu qo‘riqxonalarga tashrif buyurmoqdalar. Bundan tashqari, hozirgi kunda insonlar o‘ziga xos tabiatning noyob joylarida suratga tushib o‘zlarining ijtimoiy tarmoqlari va internetda muxlislarini ko‘paytirish maqsadida Afrikaga kelishadi. Afrika sayohat qiluvchilar orasida hozirda Yevropa turistlari oldingi o‘rinda turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2023-yil yakunlari bo‘yicha Afrika davlatlariga turistlarning tashrif buyurishi quyidagicha ko‘rsatkichga ega:

1. Misr - 14.9 million tourist.
2. Morocco - 14.5 million.
3. Tunisia - 9 million.
4. Janubiy Africa - 7.6 million.
5. Tanzania - 1.797 million.
6. Kenya - 1.75 million.
7. Ruanda - 1.4 million.
8. Mozambik - 1.2 million

Ushbu mamlakatlarga tashrif buyuruvchilar asosan tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lish va noyob, yirik hayvonlarni ko'rish maqsadida sayohat qilishadi. Shuning uchun ham bunday mamlakatlardagi noyob turdag'i hayvonlarni muhofaza qilish va ekoturizmda keng foydalanish maqsadida milliy parklar va qo'riqxonalar tashkil qilingan. Milliy parklarning maqsadi asosan hayonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish, landshaflarni saqlash, ilmiy izlanishlar o'tkazish bilan bir qatorda ekoturizmdan ham foydalanish orqali ham tabiatdagi o'zgarish va jarayonlarga aralashmaslik, ham insonlarning maroqli dam olishini tashkil qilish hisoblanadi.

O'zbekistonda ham hozirgi kunda ikkita biosfera qo'rixonasi, ikkita milliy park, 9 ta noyob turdag'i hayvonlarni qo'riqlovchi va ko'paytiruvchi qo'riqxonalar va turli shaklda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud. Ushbu milliy parklar va qo'riqxonalardan turizm va ekologik turizm maqsadlarida foydalanish insonlarning tabiatga va undagi hayvonot dunyosiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, hamda yaxshigina daromad olib keladi. Zomin milliy tabiat bog'i va Ugom Chotqol milliy tabiat bog'ida yurtimizda kam uchraydigan har xil turdag'i hayvonlar va o'simliklar, hamda landshaftlarni muhofaza qilinadi. Ushbu milliy parklarimizda noyob hisoblangan O'zbekiston qizil kitobi va Dunyo qizil kitobiga kiritilgan bir nechta turdag'i jonivorlar qo'riqlanadi. Masalan qo'ng'ir ayiq, Turkiston silovsini, Ilvirs, Buxoro bug'usi (Xonguli), Morxo'r, Arqal (Ustyurt qo'yi), Buxoro qo'yi, Sayg'oq, Jayron kabi ko'plab noyob hayvonlar yurtimiz tabiatida tarqalgan.

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz tabiatni noyob va dunyoning boshqa joylarida uchramaydigan o'simlik va hayvonot dunyosiga boy hisoblanadi, bunday hayvonlar milliy parklarda va qo'riqxonalarda muhofaza qilib kelinmoqda. Milliy parklar va qo'riqxonalardan ekoturizmda foydalanish milliy iqtisodiyotimizga va turizm sohasidan keladigan daromadlarning o'sishiga olib keladi. Milliy parklarni asrab avaylash, hayvonlarni ko'paytirish va ulardan ekoturizmning obyekti sifatida foydalanish turizmni rivojlantirishga hissa qo'shami.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temirkulovich u. J. Features of entrepreneurship development in tourism //euro-asia conferences. – 2021. – т. 5. – №. 1. – с. 62-65.
2. Temirkuliyevich u. J. The importance of tourism in the development of business activity in uzbekistan //journal of economy, tourism and service. – 2023. – т. 2. – №. 12. – с. 78-81.
3. Gulchehra n. Motivations for the development of ecological tourism and mechanisms of its regulation //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2023. – т. 33. – №. 33.
4. Hayitboyev r. Ekologik turizm asoslari 2018-yil.
5. Olimovich, d. I., temirkulovich, u. J., &bakhodirovna, m. M. (2020). Mechanisms of improving staff training. *Academy*, (2 (53)).

SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Ibragimov B. B. – UrDU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasи stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlanish holati tahlil qilingan. Tahlillar natijasida sug‘urta bozorini rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta bozori, moliyaviy xizmatlar, biznes, majburiy sug‘urta

Аннотация. В данной статье анализируется состояние развития рынка страховых услуг. В результате анализа были даны выводы и предложения по развитию страхового рынка.

Ключевые слова. Страховая компания, страховой рынок, финансовые услуги, бизнес, обязательное страхование.

Abstract. This article analyzes the state of development of the insurance services market. As a result of the analysis, conclusions and suggestions were given regarding the development of the insurance market.